

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

MUNDARIJA

Baxtiyor ADIZOV. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	7
Ширинбой ОЛИМОВ, Юлдуз САИДОВА. Талабалар маънавиятини ривожлантиришнинг йўналишлари	10
Bolta XODJAYEV. Shaxs ijtimoiylashuvida fuqarolik madaniyati muhim pedagogik omil sifatida	16
Нодира МУСАЕВА, Нафиса МУСАЕВА. Разработка теоретических основ технологии неразрывности обучения основанной на педагогической таксономии	20
Baxshillo UMAROV. Yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda sharq allomalari merosidan foydalanish imkoniyatlari	24
Кобилжон АБДУЛЛАЕВ. Приоритетные направления государственной образовательной политики в сфере дошкольного образования.....	28
Shabon FARMONOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	31
Гулия ХАБИБОВА. Функция махаллы в современном обществе Узбекистана	36
O'lmas QURBONOVA. Pedagogik fikrlar taraqqiyotining ayrim masalalari.....	39
Manzura OCHILOVA. O'quvchilarning ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishida al-Buxoriy ta'limotining o'rni	42
Bobomurod JURAYEV. Abushakur Balxiyning "Ofarinnoma" asarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari.....	45
Gulchehra IZBULLAYEVA. Didaktik asarlarda do'stlik munosabati va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni.....	49
Nargiza BAXRIYEVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanganlik dinamikasi	54
Dildora TOSHEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashda tabiiy fanining o'rni va ahamiyati.....	59
Olimjon AHMADOV. Taraqqiyparvarlarning Buxoroda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishga qaratilgan g'oya va qarashlari	63
Oybek ORTIQOV. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	66
Matluba XOJIYEVA. Abu Rayhon Beruniyning axloqiy qarashlari	70
Nigina ISMATOVA. Yoshlarni oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish usul va vositalari	76
Lola ELIBOYEVA. Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari	80
Feruza RAMAZONOVA. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy e'tiqod tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari	86
Ma'rifat UMUROVA. Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda milliy merosning o'rni	89
Nilufar RAXIMOVA. Tasavvuf ta'limotining tarbiyaviy ahamiyati.....	93
Mirjon AMONOV. O'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillari va mezonlari.....	96

DIDAKTIK ASARLARDA DO'STLIK MUNOSABATI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Ushbu maqolada XII asr oxiri XIV asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda yaratilgan didaktik asarlarda keltirilgan Fariddin Attor, Burhoniddin Rabg'uziy, Najmiddin Kubro, Nosiriddin Tusiy, Muslihiddin Sa'diy, Jaloliddin Rumiy, Xusrav Dehlaviy, Ubayd Zokoniylar tomonidan do'stlik borasidagi fikrlari keltirilgan bo'lib, bugungu kunda shaxslar o'rtasida do'stlik munosabati shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: do'st (siddiq), do'stlik munosabati, sadoqat, birodarlik shartlari, komillik, xushbaxtlik.

В этой статье представлены взгляды на дидактические произведения, созданные в Мовароуннахре и Хурасане в конце 12 века - начало 14 века, таких великих людей: Фариддин Аттар, Бурханиддин Рабгузи, Наджмиддин Кубро, Носириддин Туси, Муслихиддин Саади, Джалалиддин Руми, Хусрава Дехлави, Убайда Закани. Особо отмечены дружеские отношения между людьми.

Ключевые слова: друг (искренность), дружба, верность, братство, совершенство, счастье.

This article presents views on didactic works created in Movarounnahr and Khurasan at the end of the 12th century - the beginning of the 14th century, of such great people: Fariddin Attar, Burkhaniddin Rabguzi, Najmiddin Kubro, Nosiriddin Tusi, Muslihiddin Saadi, Jalaliddin Rumila. The friendly relations between people are especially noted.

Key words: friend (sincerity), friendship, loyalty, brotherhood, perfection, happiness.

Kirish. Butun dunyoda do'stlik ijtimoiy-axloqiy va psixologik tushuncha sifatida qabul qilinadi. O'zaro hurmat, yoqtirish, manfaatlarning umumiyligi, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar o'rtasidagi munosabat shaklini ifodalaydi. Kishilarning muloqot shakli sifatidagi do'stlik, qon-qardoshlik, o'rtoqlik, birodarlik tushunchalariga yaqin, lekin pedagogik-psixologik nuqtai nazardan esa ulardan o'zining alohidaligi, tanlash xususiyati, his-tuyg'u bilan farq qiladi. Axloqiy psixologik hodisa va shaxsiy xislat sifatida do'stlik odamning yoshi (bolalik, o'smirlikdagi do'stlik), shaxsning shakllanishi bilan (maktabdagi, talabalik yillaridagi, armiyadagi do'stlik) o'zgarib boradi. Haqiqiy, mustahkam do'stlik yuksak, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsad va g'oyalar mushtarakligini anglash asosida shakllanadi. Do'stlik millat va xalqlar o'rtasidagi ijobiy aloqalarda ham o'z ifodasini topadi. Hozirgi davrda ko'p millatli yurtimizning rivojlanishi uchun xalqlar o'rtasidagi do'stlik nihoyatda muhim. Xalqlar, millat va elatlar o'rtasidagi do'stlik jamiyatimizda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir.

Mavzu tahlili. Do'stlik munosabati ajdodlarimizning ma'naviy merosida ulkan o'rin egallagan. Ayniqsa XII asr oxiri XIV asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda Fariddin Attor, Burhoniddin Rabg'uziy, Najmiddin Kubro, Nosiriddin Tusiy, Muslihiddin Sa'diy, Jaloliddin Rumiy, Xusrav Dehlaviy, Ubayd Zokoniylar tomonidan yaratilgan didaktik asarlarda do'stlik, do'st tanlash va do'stga vafodorlik munosabtlari kuylanadi. Asarlarda tasvirlangan **do'stlik munosabati** ta'riflariga e'tibor qaratadigan bo'lsak unga manfaat va mazmun kurashini kuzatish mumkin. Do'st bilan munosabatda ma'naviy mazmun bu sog'lom do'stlikdir. **Sog'lom do'stlik, chuqur sadoqat va yaqinlik hissi bilan shakllangan rishta bo'lib**, unda ikki inson o'zaro o'ziga xos xususiyatlarini qo'rqmasdan ifoda etishidir. Bu ikki kishining birlashishi oddiy birlikdan ko'proq narsani keltirib chiqaradigan ta'sirchan makon hamda hissiy jihatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shu o'rinda, Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy»sida do'stning mohiyati borasida: «Har ishni qilishdan oldin yaxshi do'st bilan maslahat qilib, keyin amalga oshir lozim [1;174]» - deyiladi. Najmiddin Kubro esa do'stlik borasida «ko'rdimki eng noyob ne'mat – rostgo'ylik va qahramonlik, eng og'ir balo munofiq do'stlar ekan... Ko'rdimki, eng yaxshi do'st ilm ekan [9; 263]», – deydi.

Fariddin Attor ilmiy merosida ham do'stlik munosabati serqirra mazmunda ifodalangan. Attor: fozil insonlar-la bo'lg'in do'st, inoq, mumsigu ahli kibrdin qoch yiroq...[4; 130], – deydi. Attor do'stlik

munosabatini qurgandan so'ng «kimsaga do'stdin shikoyat etmagil..[4; 220] – deydi va «Pandnoma»da do'stlik munosabatida kuzatiladigan illatlar ziyonkorlik, faqat manfaat va foydani ko'zlash [4; 390] keltirib o'tadi. Jumladan, ziyonkor, manfaatdor va faqat o'z foydasini o'ylaydigan kishilar bilan do'st tutunib bo'lmashligi, kishi maslakdosh, hamfikir va xalq manfaatida yuruvchi inson bo'lsagina undan sog'lom do'stlik chiqishi mumkin.

Shayxul Olam Sayfiddin Boharziy ham o'z davrida minbardan turib muridlariga qilgan ma'ruzalarida do'stga munosabat borasida quyidagicha fikrlarni bildirib: «Kishilar o'z dushmanlariga nisbatan e'tiborsiz bo'lmashliklari kerak, do'stlari yoki dushmanlari bilan har qanday vaziyatda ham yaxshi munosabatda bo'lsinlar [5; 56]», – deydi. Shayx fikricha inson salohiyati yaxshi va yomonda yaxshi munosabatni saqlay olishda va bu orqali hamisha narsa va hodisadan ogoh bo'la olishda. Chunki, yaxshi munosabat bilan ko'p narsani yengish mumkin.

Nosiriddin Tusiy esa «Axloqi Nosiriy»da do'stlik munosabatida sadoqatning o'zni beqiyosligini ifodalab beradi. Jumladan, «*Sadoqat* – deb shunga aytiladiki, bog'langan muhabbat do'stning butun orzularining amalga oshirilishiga sabab bo'lsin, mumkin bo'la oladigan har narsa uning yo'lida qurbon etilsin [2; 140]», – deydi. Tusiy, faylasuflarning eng sadoqatli do'st (siddiq) haqida aytganlari quyidagilardan iborat, deydi: Asl sadoqatli do'st udirki, ichida sening o'zing bo'lsin, zohiran boshqasi. Bunday bir sadoqatning ulug'ligi, uning avom odamlarda bo'la olmasligi, o'spirinlarda yo'qligi haqida unga ko'ra bu qadar atrofli muhokama qilindiki, xayrning nima ekanligini bilmagan, to'g'ri maqsadning mohiyatini tushunmagan odamning ko'rsatgan muhabbati yo manfaat, yoda lazzat kutgani bilinsin [2; 183].

Asarining uchinchi «O'lka (shaharlarni) idora etmoq qoidalari» nomli sakkiz fasldan iborat bo'lgan maqolaning oltinchi «Sadoqatning fazilati va sadoqatli odamlar bilan munosabatning qoidalari haqida»gi faslida jamiyatda do'stlik munosabatlarining o'zni ta'limiy va tarbiyaviy jihatdan chuqur asoslab berilgan. Unga ko'ra, «inson o'z tabiati e'tibori bilan ijtimoiy bo'lganidan uning to'liq xushbaxtligi sadoqatli odamlarning (do'stlarining) xushbaxtligi, mehnat hamkorlarining saodati bilan bir yerda bo'ladi [2; 183]», – deyiladi. Asarda, kimningki to'liqligi boshqalarining komilligi bilan aloqador ekan, u, hech vaqt individual kamolga yeta olmasligi ta'kidlanadi va «komil va xushbaxtlikka yetgan odam shunday odamki, o'ziga ko'pgina sadoqatli hamkor topgan, o'ziga xayrli bo'lgan narsalarga ularni ham jalb etgan, bajarib bilmaydigan xushbaxtlikni ularning ko'magi bilan qo'lga kiritgan hamda butun umri bo'yi ularning borligi bilan faxr etib lazzatlanagan bo'lsin [2; 184]» – deyiladi. Alloma shu o'rinda: «haqiqiy do'st ham ko'p bo'la olmas [2; 184]», – deb ta'kidlaydi.

Bundan tashqari asarda, ko'p odamlar bilan qiziqishlarning umumiyligi, o'zaro foyda bo'lganda yaxshi munosabat qurish mumkinligi, ba'zan moddiy manfaat bo'lmaganda ham ko'p odamlar bilan fazilat uchun do'stlik yaratish lozimligi. Xayrxoh, fozil, olim odamlar o'z hamkorlari, maslakdoshlari bilan maqsad va amal umumiyligi yuzidan hammadan ortiq vafoli, sadoqatli do'st bo'la olishlari, izohlanadi. Tusiy asarda do'stlik munosabatlarini qurish va mustahkamlashda G'arb va Sharq faylasuflari fikrlaridan unumli foydalanadi. Jumladan, Aristotelning do'stlik borasidagi: «Insonlar butun hollarda do'stga muhtojdirlar. Lekin ikki holda juda ko'p: to'qlikda – bir joyda yeb lazzatlanmoq; yo'qlikda – birlashib ko'mak etmoq uchun» deya aytganlari va Oneskritning: «Men u odamlarga taajjub etamanki, avlodlariga shohlarning tarixini, ularning boshiga kelgan ahvolotlarni, urush qoida-qonunlarini, qasos va adovat shartlarini o'rgatadi, lekin aqlariga kelmaydi, avvalgi do'stlik, munosabat, ulfat, muhabbat, xayrxohlik, o'zaro ko'mak, yangi hayot uchun zaruriy, ularsiz yashamoq mumkin bo'lmagan fazilatlarini o'rgatmoq lozimdir», – degan fikrini keltirib, bola tarbiyasida keraksiz ma'lumot o'rnida uning shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ma'lumotlarni berish, ayniqsa hayotda o'z o'rnini topish uchun do'st, yo'ldosh kerakligini olg'a suradi. Bundan tashqari, do'stlik munosabatlarini qadrlamagan insonlarga qarata faylasufning so'zlaridan misol keltiradi: «Kim o'zaro ko'mak va mehnatga xor boqar, uni kichik, ahamiyatsiz bir narsa hisoblasa, haqiqatdan razil va ahamiyatsiz odam uning o'zidir», va yana go'zal aytganlar, deb: «Dunyoda faxr etadigan bir narsa bo'lsa, u ham sadoqatli do'stdir», borasidagi fikrni keltiradi. Olim, falasuflardan biri aytgandir, deb: «Fozil do'sti bo'lgan bir odamning qayg'u tushganini eshitganimda taajjub etaman [2; 184]», degan fikriga to'xtalib o'tadi. Bu yerdan shu narsani anglash mumkinki, alloma faylasuflar ma'naviy me'rosini o'rganishning chuqur bilimdoni va ularning ayniqsa do'stlik borasidagi qarashlaridan ta'sirlanib, o'z asarida uyg'un holda foydalana olgan olimdir.

Tusiy do'st tanlashga jiddiy e'tibor qaratib, do'st bo'la oladigan «sadoqatli odamlarni tanlash uchun buyuk imtihonlar, sinovlar va mahak toshlaridan o'tmoq lozimdir [2; 184]», – deydi va «Eng qiyin va og'ir kunlarda insoning qo'lidan tutgan, dodiga yetgan, do'stdir [2; 185]», – deb ta'riflaydi. Asarda bundan tashqari, shohlarning davlatni boshqaruvida, sadoqatli va samimiy do'stlar hamda vafoli va e'tiborli yo'ldoshlar vositasi bilan amalga oshishi lozimligi ko'rsatiladi.

Olim do'st tanlamoq va do'stni qaysi usul bilan saqlamoq xususiyatlari borasidagi fikrini davom ettirib, do'stning sadoqatidan foydalanish uchun, uning kechmishini o'rganish, bolaligi va yaqinlari bilan munosabatini o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. U: «Birodarlik deb shunga aytiladiki, yaxshilik evaziga yaxshilik etsin, mukofot bersin [2; 185]», - deydi va do'stlik munosabatida minnatdorlik, shukr, qo'li ochiqlikni ulug'lab, noshukurlik, nonko'rlik hamda ochko'zlikni qoralaydi.

Asarda qardoshlik qoidalari, birodarlik shartlari asoslanib, do'stning pulparast, xasis, yoki qo'li ochiqligiga, qarzdor bo'lib qolmasligiga, da'vogar bo'lib qolmasligi uchun yaxshi fikr, nasihat, maslahat berish lozimligi ta'kidlanadi. Tusiyo do'stlik qoidalaridan biri hadya bermoq, tuhfa keltirmoq, qarz olmoq, qarz bermoq, muomala va munosabat etmoq, o'rtada oltin-kumush haq-hisobni bo'lmoqdan iboratdir, deb ko'rsatadi.

Olim do'stlikning dushmanlikka aylanishning bosh sababi manmanlik va takabburlikda, deb biladi va do'stlik munosabatini saqlashda sadoqatdan tashqari tarona, musiqa, raqs, mutoyiba, latifa, sho'xlik, hazilkashlik, shodlik, quvnoqlik va bu kabi xususiyatlarni nazarga olish lozimligini, uqtiradi.

Do'stlik sinovlaridan chiqqan odamni eng sodiq, eng fozil, do'st hisoblash, uni qo'ldan chiqarmaslik kerak, deydi Tusiyo va «inson bir haqiqiy do'st topa olsa, uning bilan kifoyalana oladi: qo'y bitta bo'lsin, lekin yaxshi bo'lsin. Do'st ko'p bo'lganda, do'stlik talabi ham ko'p bo'ladi, birini amalga oshirganda, u birini nazardan qochira oladi natijada birining ko'ngliga og'ir botadi [2; 185]», - deb izohlaydi.

Mutafakkir, ko'p sadoqat talab etish yuzidan do'stning kichik nuqsonlarini xato sanamaslik kerak, chunki, nuqsonsiz odam axtargan do'stsiz qolishi, natijada tanholikda iztorob chekishini aytib o'tadi.

Asosiy masala shudirki, deydi olim: «do'st bo'lgan odam uchun qayg'urib nozini ko'tarasan, injiqligiga toqat qilasan, eng kichik haqini ham toptamaysan, shodligida, qayg'usida ishtirok etasan, og'ir kunida yonida turasan, qoqilganida qo'ldan tutasan, yo'qchilikka yuz tutganda kular yuz bilan, xushsifat bilan qarshilaysan, qalbida umid mash'alini yondirasan, ko'zlarida sevinch otashini olovlantirasan, xatti-harakatda shodligiga sabab bo'lasan...

So'ngra har kun, balki har on istasang zohirda, istasang yashirin undan yordam qo'lini uzmaslik kerakdir, shunday etish kerakdirki, do'sti uni ko'rganda yuzi ochilsin, ko'zi kulsin. Bundan so'ngra u, do'stning ham unga sodiq bo'lib ko'mak ko'rsatishiga amin bo'la oladi. Asl sadoqatli do'stlar ko'rishganda ularning yuzidan ma'lum bo'ladi, shuningdek, o'rinsiz samimiyat, sun'iy sadoqat orif odamlarning ko'zidan qochmas. Bu usul bilan yaqin odamlarning, masalan, bir yerda ishlaganlarning, o'g'il-qizlarning, qavm-qarindoshlarning, do'st-oshnolarning, tanishlarning ham munosabatini tushunsa bo'ladi [2;186]».

Albatta, bunday harakat do'stlikning himoya qilib saqlanishiga, uning yaltoqlik va dushmanchilikka aylanmasligiga ko'mak beradi, ishda va so'zda sadoqat isbot etilgan bo'ladi. Tusiyo, sadoqatning buzilishining asosiy alomatlaridan biri sifatida tilda shikoyat va g'iybatni, ya'ni yurakdagi kina va qudratni ajratib ko'rsatadi, ularning har ikkisi do'stlik uchun buyuk razolatdir, deydi. Alloma, «do'stlarga yuz bergan og'ir va musibatli kunlarda ularga etilgan moddiy va ma'naviy yordam odatdagidan ko'proq bo'lishi kerak. Ularning buni tilga keltirib-keltirmasliklarini ko'zlam to'g'ri emasdir. Aql va farosat bilan ularning yurak va fikrlarida tutgan narsalarni topmoq, o'zlari aytmagan orzularini amalga oshirmoq, dard va g'amlariga sherik bo'lmoq lozimdir. Balki buning bilan ularning og'riqlari bir oz yengillashsin, yuraklari taskin topsin [2;186]», - deydi.

Tusiyo do'stlikning biron-bir munosabatini e'tibordan chetda qoldirmaydi va buyuk vazifalardan biriga yetsa, do'st va yo'ldoshlarini uning karomatlaridan mahrum etmaslik, o'zini tortmasligi, iloji bo'lsa ularning bo'yniga minnat qo'ymaslik kerakligini uqtiradi. U, «do'stlarining birida bir iymonsizlik, yo sovuqlik his etsa, yuziga urmaslik, unga juda ko'p mehribonlik ko'rsatish, juda ko'p ko'rishish kerakdir. Agar takabbur, mag'rurlik, xudbinlik, egilmaslik, kin saqlamoq va bu kabi sabablar yuzidan o'zi ham sovuqlik ko'rsatsa, do'stlik iplari qirilar, sadoqatga xalal yetadi. Iymonsizlik sovuqlikka sabab bo'lgan shu masalaning oydinlashtirilishi uchun tadbir ko'rish, hech bir narsani yashirmasdan, ochiq, samimiy, nima bor bo'lsa hammasi aytish kerakdir. To'g'rilikda ko'p buyuk barokat bordir [2; 186]», - deydi.

Olim do'stlar o'rtasida yuzaga kelgan nifoqning oldini olish, ularning dushmanlikka aylanmasligi uchun do'stlik shartlariga rioya etish va do'stlik fazilatlaridan foydalanish lozimligini ta'kidlaydi va «yolg'on bilan do'stlik bir yerga sig'mas... Asliga qolsa, ulfat do'stlik-to'g'rilik uchun yaratilgandir [2; 186]», - deydi.

Olim, xususan, saxovatdan ortgan, xasislikdan kamaygan bilim va san'at kabi ne'matlarni ko'rsatib o'tib, do'stdan yaxshi biladigan ilm va ma'rifatni, yaxshi tanish bo'lgan kasb va san'atni ayamaslik kerak, deydi va «dunyo molini do'stga ravo ko'rmaslik, ayniqsa, oz topiladigan narsalarni yashirib do'stni zahmatga solmoq qabohatdir [2; 187]», - deydi.

Mutafakkir, do'stlarning ayblarini boshqalardan keltirilgan rivoyatlar va misollar bilan tushuntirishni, bu foyda bermaganda usti yopiq shaklda, og'zaki so'z, ibodat va yo hazil-huzul orqali unga

yetkazishni, bu ham ko'mak bermasa xilvatga chekinib oldingi sadoqatdan, xayrxohlik, o'zaro ishonch, e'tibor, samimiylik va do'stlik qoidalaridan suhbat qilib bu nuqsonni uning yuziga ochiq aytish lozimligini ta'kidlaydi va «do'st»ga ta'rif berib «do'st deb shunga aytiladiki do'stning aybini o'zidan boshqa hech kasga aytmasin, boshqa do'stlarning malomatiga, dushmanlarning qiynog'iga sabab bo'lmasin [2; 187]», – deydi.

Sa'diy qarashlarida ham do'stlik munosabati yetakchi o'rinlarni egallaydi. U «Guliston»da do'stlik munosabati borasida «Dushman eshigini qoqqandan ko'ra do'st uyini qoqlagan (quritgan) yaxshi», – deydi va yana: «Podshohning do'stligi va bolaning xushovozligiga ishonib bo'lmaydi. Chunki podshohning do'stligi bir shubhada, bolaning xushovozi esa bir kechada o'zgaradi [7; 122]», – kabi fikrlarni keltirib o'tadi.

«Guliston»da do'stlik shartlari borasida «Har bir siringni do'stingga aytaverma. Ajab emas-ki, bir vaqt kelib senga dushman bo'lib qolar, dushmaningga har qanday yomonlikni ravo ko'raverma, ajabmas bir kun sen bilan do'stlashsa. Yashirmoqchi bo'lgan siringni eng yaqin do'stingga ham aytma, chunki har bir do'stingning do'sti va do'stining ham do'sti bordir [7; 127]», – deydi. Ushbu fikr orqali alloma do'stlik munosabatida mustahkam poydevorni saqlash uchun do'stga har bir sirni ochmaslik va shu bilan birga, insonni ogohlikka ham chaqiradi. Har bir munosabatda turli xil ixtiloflarni oldini olish uchun «masofa saqlash» g'oyasini olg'a suradi.

Rumiy ham o'z qarashlarida do'stlik munosabatini sadoqat va xiyonat orqali izohlaydi. Jumladan, «Masnaviy»da do'stga xiyonat yomon illatlardan biri ekanligi tasvirlanib: «kimki do'stiga qabohat aylasa, mard yo'lini to'sguvchi nomarddir o'sha [6; 10]», – deb ta'rif keltiradi va do'st bilan munosabatda:

Odamiy ko'zdirki, po'stdir qolgani,
Ko'z ochib, sen do'stni ko'rsang bo'lgani.
Ko'rmasang gar, ko'r bo'lgan yaxshiroq,

Do'stki boqiy ermas, andin yiroq bo'l [6; 56], – deydi. «Masnaviy»da Rumiy do'st ishi gohida dushmanlik bo'larmish [6; 239], do'stki nodo'st bo'ldi, ko'ngil boylama, nari qoch, so'zlashma, suhbat aylama [6; 429], – deb nasihat qilinadi. Rumiy sadoqatsiz do'stlik borasida: kun kelarkim, do'stlaring diltang bo'lur, yuz burib sendin, base dushman bo'lur [6; 551]. Gar ilon chirmashsa – jonning dushmani, lek yomon do'st o'tda yondirgay seni [6; 587]. Sog' bolganda barcha do'stu oshno, xastalik yetganda do'sting bir Xudo [6; 605], – deydi.

Do'stlik munosabatining ta'rifi Rumiyda juda kuchli mantiqiy mazmunga ega. Rumiy har qachon do'st bo'lmoqchi bo'lsang do'stga aqlingni fido et [6; 430], g'ofil bilan oshno, do'st tutunmagil. Faqat oqil bilan do'st tutun [6; 332], yo'qsa jahonda bemadad, qolgaysen [6; 554], – deb maslahat beradi. Alloma do'st bilan quriladigan munosabatga ta'rif berib, do'st agar ranjitsa, hech ranjirmu do'st? Mehr mag'z ersa magar, ranj misli po'st. Do'st turar yoningdayu joningda to, har balovu ofatu mehnat aro. Do'st – misoli zar, balo otash erur, zar agar otashga kirsas, xush erur [6; 183], deydi. «Masnaviy»da yana do'stga ozor bermaslik, manmanlik etmaslik, do'stni qo'ldan bermaslik, uni o'zga dushman etmaslik, do'stga doim do'st deb nazar solish, do'stga nisbatan ko'ngilga kiynadan zarar keltirmaslik, do'stlikning shartlarini ado etib yaxshi do'st bo'lish kabi do'stlik munosabatini qurish borasida pandu-nasihatlar keltiriladi.

Xusrav Dehlaviy qarashlarida ham do'stlik munosabatiga alohida e'tirbor qaratilganligini kuzatish mumkin. U do'stga doimo samimiy munosabatda bo'lishni yaxshilikning birinchi sharti deb belgilaydi va do'stlik va'dasini berdingmi, va'daga vafo qilib, do'stlik xonasini mahkam qur. Do'stlik qat'iy bo'lmasa nima keragi bor, chunki yog'siz chirog'u pilik yonmagay [3; 128], – deydi. Alloma ushbu fikr yakunida do'stlik munosabatini chirog'u pilikni misol keltirib yorug'lik ulashadigan yog'ga muqoyasa qiladi.

Dehlaviy kishiga: do'stlaring ko'payar farovonlikda, ularni sinab ko'r notavonlikda [3; 138], – deya nasihat beradi va do'stlik munosabatida hamjihatlik va vafodorlikning ahamiyatini izohlab:

Do'st emas kimki bo'lmasa hamkor,
U emas yor, balki bir makkor.
Bevafo qalbida vafo bo'lmas,
Ham vafo ahlida jafo bo'lmas.
Chin vafodorlik ulug' davlat,
Egasi mangu topg'usi hurmat [3; 128], – deydi va do'st ta'rifini keltirar ekan:
Kulfatingda kimki bo'lmas yor,
Bo'lmagay do'st senga u zinhor.
Yaxshilarga o'zingni yor etgil,
Jonkuyarlarga jon nisor etgil.
Arzigay unga jon fido qilsang,
Bir vafosiga ming vafo qilsang...
Do'st olamda bo'lsa ham bisyor,

Uni chindan vafoligi darkor.

Do'st tut kimki senga sodiqdir,

Do'stlik nomiga muvofiqdir [3; 128], – deydi. Demak, do'stlikning asosiy sharti vafu va sadoqatdir. Ushbu shartlar do'stlik rishtasini mustahkamlaydi va o'zgalarga o'rnak bo'la oladigan munosabatni o'zida namoyon qiladi.

Ubayd Zokoniylar asarlarida ham do'stlik borasida ko'pgina fikrlar keltirilgan. Masalan, Horun ar-Rashid Bahluldan, eng yaqin do'sting kim, deb so'rabdi.

- Qornimni to'ydirgan kishi, – deb javob beribdi Bahlul.

- Qorningni to'yg'izsam meni ham do'st deb bilasanmi? – debdi Horun.

- Do'stlik ham nasiya bo'ladimi? – debdi Bahlul Horunga [8; 240]. Ushbu hikoyada Bahlul tilidan hajv orqali do'stlikda ta'maning yomon illat ekanligi qoralangan va Zokoniylar do'stga: «Al-do'st – biz ezgu umid bog'lagan odam» [8; 240] – deb ta'rif beradi.

Tahlil va natijalar. Demak, mutafakkirlarimizning do'stlik munosabatining asosiy kategoriyalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: **sog'lom do'stlik, chuqur sadoqat va yaqinlik hissi bilan shakllangan rishta, maslahatgo'y, ro'stgo'y, qahramon, fozil inson, beshikoyat, sabru bardoshli, kishi maslakdosh, hamfikir va xalq manfaatida yuruvchi inson, sadoqatli, fazilat sohibi, xayrixoh, olim, maslakdosh, vafoli, ko'makdosh, ulfat, minnatdorlik, shukr, qo'li ochiqlik, kular yuzli, xushsifat, sirdosh.**

Didaktik asarlarda ifodalanfagan fikrlardan foydalanib qardoshlik qoidalari, birodarlik shartlari va do'stlik fazilatlarini foydalanish esa quyidagi mazmunda ifodalash mumkin:

- do'st bo'lgan odam uchun qayg'urib nozini ko'tarish,
- do'stga fidoiy bo'lish,
- inijligiga toqat qilish,
- eng kichik haqini ham toptamaslik,
- shodligida, qayg'usida ishtirok etish,
- og'ir kunida yonida turish,
- qoqilganida qo'lidan tutish,
- yo'qchilikka yuz tutganda kular yuz bilan, xushsifat bilan qarshilash,
- qalbida umid mash'alini yondirish,
- ko'zlarida sevinch otashini olovlantirish,
- xatti-harakatda shodligiga sabab bo'lish...
- har kun, balki har on istasa zohirda, istasa yashirin undan yordam qo'lini uzmaslik,
- aql va farosat bilan ularning yurak va fikrlarida tutgan narsalarni topmoq,
- o'zlari aytmagani orzularini amalga oshirmoq,
- dard va g'amlariga sherik bo'lmoq.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki XII asr oxiri XIV asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda yaratilgan didaktik asarlarda keltirilgan Farididdin Attor, Burhoniddin Rabg'uziy, Najmiddin Kubro, Nosiriddin Tusiy, Muslihiddin Sa'diy, Jaloliddin Rumiy, Xusrav Dehlaviy, Ubayd Zokoniylar tomonidan mutafakkirlarimiz tomonidan didaktik asarlarda do'stlik, shartlari va uning talablari, do'stlikning sifatleri xislat va fazilatleri bayon etilgan.

Maqolada do'stlik borasidagi fikrlar jamlanib pedagogik tahlili keltirilgan, bu fikrlardan dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida talaba yoshlarda do'stlik munosabatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rabg'uziy, Nosiriddin. Burhoniddin. Qissasi Rabg'uziy. – T.: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. – 174 b.
2. Tusi Xacə Nəsirəddin. Əxlaqi-Nasiri. – Bakı, «Lider Nəşriyyat», 2005. – 140 s.
3. Дехлавий, Амир Хусрав. Ёр васли. – T.: O'zbekiston, 2011.- 128 b.
4. Нишопурий, Шайх Фариддин Аттор Достонлар. – T.: «Tamaddun», 2012. – 130 b.
5. Норова, М.Ф. Сайфиддин Бохарзий. – Б.: "Sadriiddin Salim Buxoriy" Durdona n., – 56 b.
6. Румий Жалолиддин. Маснавийи маънавий. – T.: «MERIYUS» XHMK. 2010. – 56 b.
7. Саъдий. Гулистон. Бўстон. – T.: Гафур Ғулом номидаги н.-м. ижодий уйи, 2013. – 122 b.
8. Ҳикоят ва ривоятлар / Убайд Зоконий, Муҳаммад Авфий, Фахриддин Али Сафийб, Абул Фароҳ; [Тўпловчи ва тарж. Кибриё Қаҳҳорова]. – T.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 240 b.
9. Ҳикоят ва ривоятлар. – T.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 240 b.
10. Шайх Нажмиддин Куброб. Тасаввуфий ҳаёт. // Таржима ва нашрга тайёрловчилар: Иброҳим Ҳаққул, Азиза Бектош. – Тошкент, «Мовароуннахр», – 2004. – 263 b.